


## CHET TILLARINI ONLAYN O'QITISHNI YO'LGA QO'YISHDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR



Dilnoza Nazarova

O'zDJTU 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: O'zDJTU katta

o'qituvchisi Yuldasheva F. F

**Annotatsiya:** Ushbu maqola hozirgi kunda chet tillarini onlayn o'qitish bilan bog'liq muammo va chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. shu bilan bir qatorda, onlayn o'rghanishni yanada samarali qilish haqida bir qancha tavsiya va yechimlar haqida ham so'z boradi. Bugungi kunda ko'plab tadqiqotlar natijalariga ko'ra, chet tilini bolalikda o'rgatish tegishli metodlar va yondashuvlar bilan olib borilsa, muvaffaqiyatli natijalarga erishiladi.

**Kalit so'zlar :** Onlayn innovatsiya, termin, o'qituvchi faoliyati, chet tili, o'rghanuvchi, metod.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены проблемы и меры, связанные с онлайн-обучением иностранных языков на сегодняшний день. а также некоторые рекомендации и решения, которые сделают онлайн-обучение более эффективным. Сегодня, по результатам многих исследований, результаты успеха достигаются, если обучение иностранному языку в детском возрасте осуществляется соответствующими методами и подходами.

**Ключевые слова:** Интернет-инновация, срок, деятельность учителя, иностранный язык, обучаемый, метод.

**Abstract:** This article includes the problems and measures related to the online teaching of foreign languages today. as well as some recommendations and solutions to make online learning more effective. Today, according to the results of many studies, the results of success are achieved if the teaching of a foreign language in childhood is carried out with appropriate methods and approaches.

**Key words:** Online innovation, term, teacher's activity, foreign language, learner, method.

Bilamizki, bugungi kunda dunyo bo'ylab ta'lif yo'nalishida katta yutuqlarga erishilmoqda. Kundan kunga yangi bilimlarning, ko'nikmalarining ochilishi, ta'limga axborot texnologiyalar kirib kelgani sayin jahon ta'lif standardlariga javob beradigan darajada o'qitish talab etilmoqda. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, chet tillarini o'rghanish ham mamlakatni eng yuqori cho'qqiga chiqarib, mukammal kadrlar yetishtirish va jahonga tanitish imkonini bermoqda.

Chet tillarini o'rghanish- mamlakat miqyosida eng e'tiborga olinayotgan jihatlardan biridir. Bugungi kunda O'zbekistonda internet nihoyatda rivojlangan,

undan ta’limiy maqsadlarda foydalanishni maqsad qilgan har bir o’rganuvchi ham, o’rgatuvchi ham har qanday qulayliklar bilan foydalana oladi. Albatta, bu yo’nalishdagi faoliyat uchun foydalanuvchidan ma’lum darajadagi kompyuter va internet texnologiyalaridan foydalanish ko’nikmalari talab etiladi. Texnik jihatdan O’zbekiston interneti online tizimda har qanday murakkablikdagi darslarni o’tish, har qanday yo’nalishdagi o’qitish va boshqa ta’limiy ishlarni olib borish talablariga bemalol javob beradi [1, 1875q].

Hozirga qadar O’zbekistonda online tizimda dars o’tish uchun mo’ljallangan, har tomonlama zamon talabiga javob bera oladigan ta’limiy portal mavjud emas. Shaxsan men ingliz tili bo’yicha O’zbekistondagi eng birinchi online, ta’lim borasida „foydalanuvchidan foydalanuvchiga” tizimida ishlovchi jonli darslarni o’zimning bilimim kamlik qiladi tashkil etish niyatidaman. Bu maqsad yo’lida, albatta, shaxsiy ko’nikmam ancha kamlik qiladi, shu sababli hozirda tarmoq bo’yicha mutaxassislar, web dasturlash tillari ustalari, bir qator internet texnologiyalariga aloqador sohalar bo’yicha mutaxassislar ko’magiga ehtiyoj sezayapman. Bu borada qator ilmiy izlanishlar qilish arafasidaman [3, 583-587b].

Chet tillarini online tizimda mukammal yo’lga qo’yishning eng zaruriy sabablaridan yana biri- aholining ijtimoiy vaziyatidir. Ba’zi oilalarda ta’lim olish uchun yetaricha sharoit yo’lga qo’yilmagan, ya’ni ular uchun harajatlarning ko’pligi ularning ta’lim olishi uchun to’sqinlik qilayotgan resurslardan biridir. Bu borada ta’lim mutasaddilari bir qator chora-tadbirlar korib chiqib, ta’limni onlayn shaklda yuritishni yoqlab chiqishgan. Haqiqatdan ham bu bir qancha qulayliklarga boy, masalan, o’rganuvchidan qaysidir bilim dargohi yoki o’quv markazlariga borib ko’nikma hosil qilishining o’rniga o’z turgan joyidan ham bemalol hamma qulayliklar bilan birga ta’lim olish imkoniyatiga ega bo’ladi. Bu bilan bir qatorda ta’lim muassasalarida ham onlayn tizimning yo’lga qo’yilishi bir qancha qulayliklarni tug’diradi. Internet tezligi va qulay ulanish imkoniga ega bo’lgan har qanday texnologiya bilan umumiyligini hosil qilib, bilim olish mumkin [5, 1076-1080b].

Shu o’rinda aytish joizki, onlayn o’qitish bir qator qulayliklar bilan birga bir nechta salbiy tomonlarga ham ega. Har bir o’quvchi ham, albatta, ma’lum maqsadda chet tillarini o’rganish uchun vaqt va kuch sarflaydi. Oflayn o’qitish tizimining ijobiy tomonlaridan biri har bir o’quvchi bilan individual shug’ullanish imkoniyatining mavjudligidir. Onlayn tizimda ham bu jihatni yo’lga qo’yishning imkonii bor. Onlayn ta’lim olish imkonini beradiga har qanaqa texnologiyada har bir o’rganuvchi bilan individual ishslash imkonii bo’ladi, ammo ba’zi o’quvchilar, aynan chet tillarini o’rganishga kelganda onlayn tizimda qiyinchiliklarga duch kelishadi : tushunmagan vaqt o’qituvchidan yana qayta so’rash uchun tortinishi, so’zning mano yoki talaffuzlarida muammolar bo’layotgan bo’lsa, ikkinchi marotaba qaytarilishi uchun so’rov bildirolmasligi, internetda noqulaylilar vujudga kelib, o’rganuvchining

faoliyatiga ta'sir o'tkazishi mumkin. Shu sababdan o'qituvchi (aynan chet tili borasida) juda ham e'tiborli bo'lishi kerak, chunki hozirgi kunda hoh onlayn bo'lsin, hoh oflays chet tilini o'rganish zamon talabiga aylanmoqda. Bu turdag'i muammolarni bartaraf etish uchun o'qituvchi o'rganuvchiga qayta-qayta so'rov bildirib turishi, o'zini erkin va noqulayliklardan holi his qilishini tushuntirishi lozim [4, 369-373b].

Bu turdag'i muammo va yechimlar talaygina, albatta, hammasining bartaraf qilinish yo'li bor. O'quvchiga onlayn o'rganishda qulayliklar keltirib chiqarish va ko'niktirish uchun onlayn multfilm, kinolar joriy qilish lozim. Zero, kelajagimiz rivoji chet tili bo'yicha yetuk kadrlar yetishtirib chiqarishimizga ko'p ma'noda bog'liqidir. Bu borada esa rivojlangan davlatlar qatorida ish ko'rish esa mamlakatimiz taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi.

### References:

- 1.Karimov.I.A." Chet tillarni o'rganish tisimini janada takomillashtiriash chora – tadbirlari" to'g'risidagi 2012 yil 10-dekabr 1875 qarori "Xalq so'zi gasetasi" 2012 yil 14-dekabr
- 2.Ахмедова С. Р. и др. Инновацион технологииларни таълим жараёнларига татбиқ этиш йўллари //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 492-496.
- 3.Ахмедова, S. R. (2021). Illova elementlarining strukturaviy tahlilini o'rganish. Science and Education, 2(12), 583-587.
- 4.Ахмедова С. Р. Таълим ва тарбия жараёнлари узвийлигининг самарадорлиги //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 9. – С. 369-373.
- 5.Axmedova, S. R. (2021). Chet tillarni o'rganish va undagi metodlarning ahamiyati. Science and Education, 2(11), 1076-1080.